QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

EPISTOLYAR MATNLARDA AYOL TAFAKKURI VA ILMIY ONG EVOLYUTSIYASI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.023

Narzulloyeva Maftuna Nusratillo qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Rus tili kafedrasi, o'qituvchi, O'zbekiston
e-mail: maftunshohnur@gmail.com
Orcid ID: 0009-0001-1614-4039

Annotatsiya Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek badiiy nasrida epistolyar shakl - maktublarning g‘oyaviy-ijtimoiy shu bilan birgalikda estetik vazifalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida maktublarning badiiy vosita sifatida qahramonning ichki dunyosi, ijtimoiy holati va dunyoqarashini ifodalashdagi o‘rni masalasi turadi. Ayniqsa, epistolyar matnda ayol ovozining namoyon bo‘lishi, ayolning shaxs sifatida ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyatining badiiy ifodasi alohida e’tiborga olinadi.

Maqolada ingliz va o‘zbek adabiyotidagi epistolyar nasrning tarixiy rivoji yoritilib, ular orqali ayol ongining shakllanishi, ayol shaxsining jamiyat va ilm-fandagi o‘rni bilan bog‘liq g‘oyalar ochib beriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda maktublarda ilgari surilgan ayol erkinligi, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalari zamonaviy ilm-fanda faoliyat yuritayotgan olima ayollarning ijtimoiy-falsafiy pozitsiyasi bilan uyg‘unlikda talqin etiladi. Tadqiqot natijalari epistolyar nasrni ayol ilmiy tafakkurining badiiy ildizlarini anglashda muhim manba sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Epistolyar matn, ayollar tafakkuri, ilmiy ong evolyutsiyasi, ayol obrazi, intellektual meros, adabiy yozuv, gender nutqi.

Аннотация В данной статье на основе эпистолярных текстов сравнительно-теоретически исследуется формирование и эволюция женской мысли и научного сознания в английской и узбекской литературной прозе. Исследование раскрывает социальные, духовные и интеллектуальные аспекты женской героини и мысли женщины-автора через художественно-коммуникативные возможности жанра письма. Анализируется процесс самосознания, независимого мышления и чувства социальной ответственности женской личности в эпистолярных текстах, обосновывается неразрывная связь этих явлений с развитием научного сознания. В статье также освещается историческое развитие эпистолярных традиций в английской и узбекской литературе, а художественное выражение женской мысли рассматривается в

сравнительной интерпретации с концепцией женщин-ученых, работающих в современной науке. Результаты исследования позволяют оценить эпистолярную прозу как важный теоретический источник в изучении художественно-источниковых основ женского научного сознания.

Ключевые слова: Эпистолярный текст, женская мысль, эволюция научного сознания, женский образ, интеллектуальное наследие, литературное письмо, гендерный дискурс.

Abstract This article studies the formation and evolution of female thought and scientific consciousness in English and Uzbek literary prose on the basis of epistolary texts from a comparative and theoretical perspective. The study reveals the social, spiritual and intellectual aspects of the female heroine and female author's thought through the artistic and communicative possibilities of the letter genre. The process of self-awareness, independent thinking and a sense of social responsibility of the female personality in epistolary texts is analyzed, and the inextricable connection of these phenomena with the development of scientific consciousness is substantiated. The article also highlights the historical development of epistolary traditions in English and Uzbek literature, and the artistic expression of female thought is considered in a comparative interpretation with the concept of women scientists working in modern science. The results of the study allow us to evaluate epistolary prose as an important theoretical source in the study of the artistic and source foundations of female scientific consciousness.

Keywords: Epistolary text, female thought, evolution of scientific consciousness, female image, intellectual heritage, literary letter, gender discourse.

Kirish

Adabiyotshunoslikda badiiy matnni shaxs tafakkuri va ijtimoiy ongning ifodasi sifatida talqin etish muhim nazariy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, epistolyar janr ya’ni maktub shaklidagi badiiy nutq muloqot va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beruvchi janr sifatida baholanadi. M.M. Baxtin badiiy tafakkurning dialogik tabiatini izohlar ekan: “Inson ongi mohiyatan dialogikdir” deb ta’kidlaydi [1; 22-b.]. Ushbu fikrlar epistolyar matnlarning nazariy asosini tashkil etadi, chunki maktub doimo “boshqa”ga qaratilgan ongning mahsulidir. Epistolyar janrning nazariy talqini J. G. Altman tadqiqotlarida tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Olimaning fikricha: “The letter is a narrative form that situates the self in relation to an absent other” [2; 46-b.], ya’ni maktub shaxsning o‘zini anglashini ijtimoiy va ruhiy munosabatlar doirasida namoyon etadi. Bu jihat ayniqsa ayol tafakkurini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tarixiy jarayonda ayol ovozi ko‘pincha aynan xatlar orqali ifodalangan.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslik va gumanitar fanlar doirasida qo‘llaniladigan qiyosiy-tahliliy, struktural, tarixiy-tipologik hamda gender yondashuv metodlaridan

foydalanildi. Epistolyar namunalar badiiy nutq shakli sifatida tahlil qilinib, undagi ayol tafakkurining ijtimoiy, intellektual va ilmiy ong bilan bog‘liq jihatlari aniqlandi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek adabiyotidagi epistolyar an’analar qiyosiy jihatdan o‘rganilib, nazariy xulosalar umumlashtirildi.

Ingliz adabiyotida ayol yozuvchilarning epistolyar shakldan foydalanishi ayol tafakkurining intellektual va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini ko‘rsatadi. E. Showalter bu borada shunday yozadi: “Women writers have often used personal forms such as letters to articulate a consciousness excluded from dominant literary traditions” [3; 12-b.]. Demak, epistolyar matnlar ayol ongining mustaqil shakllanishi uchun badiiy makon vazifasini bajargan. Ayol tafakkuri va ilmiy ong masalasi falsafiy va gender tadqiqotlarida ham muhim o‘rin tutadi. Simone de Beauvoir ayol ongining tarixiy shakllanishi haqida: “One is not born, but rather becomes, a woman” deya ta’kidlaydi [4; 283-b.]. Ushbu fikr ayol tafakkurining ijtimoiy va madaniy jarayonlar orqali evolyutsiyalashishini asoslaydi va epistolyar matnlarda bu jarayonni kuzatish imkonini beradi.

Ilm-fan tarixida ayollar hissasining yetarlicha e’tirof etilmaganini Londa Schiebinger quyidagicha izohlaydi: “The absence of women from the history of science is not natural but constructed” [5; 4-b.]. Ushbu yondashuv epistolyar matnlarda ifodalangan ayol intellektual tajribasini zamonaviy ilmiy ong bilan bog‘liq holda qayta talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois ingliz va o‘zbek epistolyar nasrida ayol tafakkuri va ilmiy ong evolyutsiyasini qiyosiy o‘rganish adabiyotshunoslik, gender tadqiqotlari va intellektual tarix uchun dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Epistolyar janr adabiyotda shaxs ongining bevosita va samimiy ifodasini ta’minlovchi shakl sifatida qaraladi. Maktub o‘z mohiyatiga ko‘ra dialogik xarakterga ega bo‘lib, unda muallif yoki qahramon tafakkuri doimo “boshqa” ong bilan muloqotda namoyon bo‘ladi. M.M. Baxtin bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: “Har qanday so‘z boshqasiga qaratilgandir va javobni kutadi” [1; 95-b.]. Ushbu fikr epistolyar matnlarning nazariy asosini tashkil etadi, chunki maktub doimo javob ehtimoli bilan yashovchi tafakkur mahsulidir.

Aynan shu dialogik tabiat ayol tafakkurini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy sharoitda ayol shaxsining ochiq ijtimoiy maydondagi nutqi cheklangan bo‘lsa-da, maktub shakli ayolga o‘z fikrini mustaqil va nisbatan erkin ifodalash imkonini bergan. J.G. Altman epistolyar janrning ushbu xususiyatini ta’kidlab: “Letters foreground the act of thinking itself, turning private reflection into narrative” deya yozadi [2; 50-b.]. Demak, maktub nafaqat voqeani, balki tafakkur jarayonini ham badiiylashtiradi. Maktubda ayol shaxs o‘z kechinmalari, shubhalari, bilimga bo‘lgan munosabati va ijtimoiy mas’uliyatini izchil ravishda ifodalaydi. Bu esa ayol ongining passiv emas, balki faol va tahliliy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ingliz adabiyotida epistolyar shakl ayniqsa XVIII asrda keng tarqalgan bo‘lib, ayol qahramonlar tafakkurini ochishda muhim rol o‘ynagan. Samuel Richardsonning “Pamela va Clarissa” romanlarida ayol qahramonlar maktublar orqali axloqiy tanlov, ijtimoiy bosim va

shaxsiy qarorlarni mantiqiy mushohada asosida baholaydi. Bu jarayonda ayol tafakkuri hissiylik bilan birga tahliliy xususiyat kasb etadi.

Elaine Showalter ingliz ayol yozuvchilari ijodini tahlil qilib, epistolyar shaklning ahamiyatini quyidagicha belgilaydi: “The letter allowed women to develop a reflective, analytical voice within the limits imposed on them” [3;13-b.]. Ushbu fikr epistolyar matnlarning ayol ilmiy ongiga yaqin tafakkur shakllarini yuzaga chiqarishini ko‘rsatadi.

Jane Austinning *Lady Susan* asarida maktublar ayol qahramonning strategik fikrlashi, ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish qobiliyatini ochib beradi. Bu holat ayol tafakkurining faqat hissiy emas, balki mantiqiy va rejalashtiruvchi xarakterga ega ekanini isbotlaydi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz epistolyar nasrida ayol tafakkuri ilmiy ongning dastlabki shakllari - kuzatuvchanlik, tahlil va xulosa chiqarish bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotida epistolyar shakl ko‘pincha badiiy matn tarkibida muhim kompozitsion vosita sifatida qo‘llanilgan. Maktublar orqali qahramonlarning ichki dunyosi, ijtimoiy pozitsiyasi va ma’naviy mas’uliyati yoritilgan. V.V. Vinogradov badiiy matnda individual nutqning ahamiyatini ta’kidlab: “Персонаж раскрывается прежде всего через формы его речи” deya yozadi [4; 68-b.]. Ushbu yondashuv epistolyar matnlarni ayol obrazini ochishda samarali vositaga aylantiradi.

O‘zbek nasrida maktublar orqali ayol obrazining ijtimoiy ongga munosabati, jamiyatdagi o‘rni va axloqiy tanlovi yoritiladi. Mazkur holat ayol tafakkurining evolyutsion rivojini ko‘rsatadi: an’anaviy hissiy ifodadan ijtimoiy va intellektual mas’uliyatni anglash darajasiga ko‘tarilish kuzatiladi. Bu esa epistolyar matnlarni ayol ilmiy ongining badiiy asoslari sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Ayol tafakkuri va ilmiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy gender va fan tadqiqotlarida muhim masala hisoblanadi. Simone de Beauvoir ayol ongining shakllanishini ijtimoiy jarayon bilan bog‘lab: “One is not born, but rather becomes, a woman” deya ta’kidlaydi [5;283-b]. Ushbu fikr ayol tafakkurining tarixiy va madaniy omillar ta’sirida evolyutsiyalashishini asoslaydi.

Ilm-fan tarixida ayollar hissasining chetda qolganini Londa Schiebinger aniq qayd etadi: “The exclusion of women from science was actively produced, not naturally given” [6;4-b]. Ushbu ilmiy xulosa epistolyar matnlarda ifodalangan ayol intellektual tajribasini qayta baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi berilgan muammolarni hisobga olgan holda, epistolyar nasrni ayol ilmiy ongining badiiy-manbaviy poydevori sifatida talqin qilish mumkin. Maktublarda kuzatiladigan tahliliy fikrlash, mantiqiy izchillik va bilimga intilish zamonaviy olima ayollar tafakkuriga xos jihatlar bilan uyg‘unlashadi. Shunday qilib, epistolyar matnlar ayol tafakkurining ilmiy ong tomon bosqichma-bosqich rivojini ko‘rsatib beruvchi muhim adabiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. A. Qodiriy maktublarni shunday talqin qiladi: “Maktub - bu nafaqat axborot, balki muallif ruhiy olamini, uning ichki dunyosini aks ettiradigan badiiy vosita” [7; 34-b]. Shu fikrni davom ettirgan holda, N. Norqulov: “O‘zbek badiiy nasrida maktublar orqali qahramon

tafakkuri va ijtimoiy mas’uliyati namoyon bo‘ladi” deya ta’kidlaydi [8; p.56]. Bundan tashqari, Madelaine Schurch tadqiqotida ba'zi ilmiy so'zlar berilgan: “…‘Women’s letters ranged far and wide over questions of war, foreign cultures and religions, law and forms of government. Their letters were well within the mainstream of popular literature; more importantly, they challenged the status quo of English society and government.’ To consider ‘epistolarity’ rather than ‘letters’ builds on these perspectives, taking account of the relationships between functionality, creativity, fictionality, and history, by bringing to the fore the dynamic formal interactions between letters and other sorts of text. While this thesis does not set out to form conclusions about influence, shifting focus from letters to epistolarity opens the way for considering how writers of texts other than letters, poems, treatises and natural philosophical reports, for example, mobilise the characteristics of letters for various purposes and effects. …The relation between the public and private, Guest shows, was ‘permeable’ and ‘fluid’ and, over the course of the eighteenth century, a ‘series of small changes in the position of women’ made it ‘possible or even necessary for some women to define their gendered identities through the nature and degree of their approximation to the public identities of political citizens’.Female-authored familiar letters permeate the realms of public and private and can, at an individual level, create their own bounds of privacy or imagined publicity. Guest suggests that when eighteenth-century women engaged in the “tireless writing” of letters, they were perhaps engaged in an activity of very limited public importance,…” [6, 28-b]. Madelaine Schurch tadqiqotida XVIII asr ayollarining yozgan maktublari faqat shaxsiy muloqot vositasi emas, balki urush, siyosat, huquq, din va davlat boshqaruvi singari keng ijtimoiy masalalarni qamrab olgan muhim intellektual matnlar sifatida namoyon bo‘ladi. Olimaning ta’kidlashicha, ayollar maktublari badiiy adabiyot doirasida shakllangan bo‘lsa-da, ular ingliz jamiyati va hukumatidagi ma’lum ijtimoiy tartiblarni tanqid qilish, hamda qayta ko‘rib chiqish vazifasini bajargan. Uning ilmiy tadqiqotida “maktub” tushunchasidan ko‘ra “epistolyarlik” atamasiga murojaat qilish epistolyar shaklning funksional, badiiy, tarixiy va badiiy-to‘qima jihatlari o‘rtasidagi nozik munosabatlarni ochib berishi ko‘rsatib beriladi. Schurch Favret va Guest tadqiqotlariga tayanib, ayollar epistolyar amaliyoti xususiy va ommaviy maydonlar o‘rtasidagi chegaralarning qay darajada o‘zgaruvchan va moslashuvchanligini namoyon etishini ta’kidlaydi. Ayollar tomonidan yozilgan maktublar shaxsiylik va ommaviylik o‘rtasida o‘ziga xos makon yaratib, ayol shaxsining siyosiy va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishda asosiy rol o‘ynagan. Natijada, kundalik epistolyar faoliyat ayollar uchun ijtimoiy, siyosiy va epistemologik ahamiyatga ega bo‘lgan intellektual amaliyot sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, epistolyar nasr ayol tafakkuri va ilmiy ong shakllanishining muhim badiiy-manbaviy asoslaridan biri hisoblanadi. Maktublarda ifodalangan tahliliy fikrlash, mantiqiy izchillik va ijtimoiy mas’uliyat zamonaviy olima ayollar tafakkuriga xos jihatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois ingliz va o‘zbek epistolyar matnlarini qiyosiy o‘rganish adabiyotshunoslik, gender tadqiqotlari va intellektual tarix uchun dolzarb va istiqbolli ilmiy

yo‘nalishlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek epistolyar nasri ayol ilmiy ongining badiiy-manbaviy asoslari nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilindi. Epistolyar matnlar ayol tafakkurining ijtimoiy va intellektual faolligini shakllantiruvchi badiiy makon sifatida talqin etilib, ayol ilmiy ongining evolyutsiyasi adabiy jarayon bilan uzviy bog‘liq holda asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, epistolyar nasr ayol tafakkurining shakllanishi va evolyutsiyasini yoritishda muhim badiiy-manbaviy asos hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek adabiyotidagi epistolyar matnlarda ayol qahramonning tafakkuri hissiy kechinmalar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy mas’uliyat, tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish xususiyatlari bilan namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar ayol ilmiy ongining dastlabki badiiy shakllari sifatida talqin qilinishi mumkin. Natijada epistolyar matnlar ayol shaxsining intellektual va ilmiy rivojini anglashda muhim adabiy fenomen sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Москва: Искусство, 1979.
2. Altman, J. G. Epistolarity: Approaches to a Form. Columbus: Ohio State University Press, 1982.
3. Showalter, E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. London: Virago Press, 2009.
4. Beauvoir, S. de. The Second Sex. New York: Vintage Books, 2011.
5. Schiebinger, L. Has Feminism Changed Science? Cambridge: Harvard University Press, 1999.
6. Vinogradov, V. V. O yazyke khudozhestvennoy literatury. Moskva: Vysshaya shkola, 1980.
7. Schurch, Madelaine. Women, Empiricism and Epistolarity, 1740-1810. PhD thesis, University of York, 2019.
8. Qodiriy, A. O‘zbek badiiy nasrida maktub janri. Toshkent: Adabiyot va San’at, 2015.
9. Norqulov, N. O‘zbek epistolyar nasri va qahramon tafakkuri. Toshkent: Fan, 2018.